


ISSN 2181-0000
Doi Journal 10.26739/2181-0000

JOURNAL OF MAMUN SCIENCE



Volume 3, Issue 8 **2025**



ISSN 2181-0000
Doi Journal 10.26739/2181-0000



«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

3 JILD, 8 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 3, HOMEP 8

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 3, ISSUE 8



TOШKENT-2025

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «МА'МUN SCIENCE» | JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»
№8 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0000-2025-8>

Бош мухаррир: | Главный редактор:
Chief Editor:

Urazbayeva Dilbar Abdullayevna
Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ma'mun Universiteti NTM

Бош мухаррир ўринбосари: | Заместитель
главного редактора: | Deputy Chief Editor:

Xudoynazarov Egambergan Madrahimovich
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
dotsent Ma'mun Universiteti NTM

TAHRIRIY MASLAHAT KENGASHI | EDITORIAL BOARD | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

FILOLOGIYA FANLARI (INGLIZ TILI)

Axmedov Oybek Saporboyevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

O'rozboyev Abdulla Durdibayevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ma'mun Universiteti NTM

Kalandarov Oybek Ruzimbayevich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

Yakubov Muzaffar Kamildjanovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

Galiyeva Margarita Rafaellovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Nasrullayeva Nafisa Zafarovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Samarqand davlat chet tillari instituti

Cho'ponov Otanazar Otojonovich

Filologiya fanlari doktori (DSc)
Urganch davlat universiteti

Yakubova Matluba Tajibayevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

Samandarova Lola Sultanovna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

FILOLOGIYA FANLARI (RUS TILI)

Cho'ponov Otanazar Otojonovich

Filologiya fanlari doktori (DSc)
Urganch davlat universiteti

Ruzmetov Surojbek Allaberganovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch davlat universiteti

FILOLOGIYA FANLARI (NEMIS)

Yakubova Matluba Tajibayevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch davlat universiteti

FILOLOGIYA FANLARI (O'ZBEK TILI)

Matnazarov Javlanbek Kabulovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

TARIX FANLARI

Anatoliy Sagdullayevich Sagdullayev

Tarix fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi Fanlar
akademiyasining haqiqiy a'zosi

Ashirov Adhamjon Azimbayevich

Tarix fanlari doktori, professor,
O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasi Tarix instituti.

Goncharov Yuriy Mixaylovich

Tarix fanlari doktori, professor
Altay davlat universiteti Rossiya

Shaydurov Vladimir Nikolayevich

Tarix fanlari doktori, dotsent
Leningrad davlat universiteti Rossiya

Abdullayev Utkir Ismoilovich

Tarix fanlari doktori (DSc),
dotsent Urganch davlat universiteti

Matkarimova Sadoqat Maqsudovna

Tarix fanlari doktori (DSc), dotsent
Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Timur Pulatovich

Tarix fanlari nomzodi, dotsent
Ma'mun Universiteti NTM

Abdalov Umidbek Matniyazovich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

Jumaniyozova Mamlakat Tojiyevna

Tarix fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Urganch davlat universiteti

Xo'jamuratov Umarjon Rustamovich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch pedagogika instituti

PSIXOLOGIYA FANLARI

Shoumarov G'ayrat Baxromovich

Psixologiya fanlari doktori, professor; akademik
O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi

Kryukova Tatyana Leonidovna

Psixologiya fanlari doktori, professor
Kostroma davlat universiteti Belorusiya

Karpinskiy Konstantin Viktorovich

Psixologiya fanlari doktori, professor
Grodno davlat universiteti Belorusiya

IQTISODIYOT FANLARI

Ruzmetov Baxtiyar

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ma'mun Universiteti NTM

Sherov Alisher Bakberganovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Voronsova Yuliya Vladimirovna

Iqtisodiyot fanlari nomzodi

Moskva davlat boshqaruvi universiteti

Jabborov Umarbek Rustambekovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Cho'ponov San'at Otanazarovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Niyazmetov Islambek Masharipovich

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

PEDAGOGIKA VA FALSAFA FANLARI

Sardor Sharifzoda O'razboy Tabib o'gli

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Matnazarov Javlanbek Kabulovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Adilov Zafar Yunusovich

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Slepko Yuriy Nikolayevich

Psixologiya fanlari doktori, professor

Yaroslav davlat pedagogika universiteti

Xazova Svetlana Abduraxmanovna

Psixologiya fanlari doktori, dotsent Kostroma
davlat universiteti Belorusiya

Kalandarova Madina Baxadirovna

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

TIBBIYOT FANLARI

Yuldashev Baxrom Sobirjanevich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Ravshanbek Babajonovich

Tibbiyot fanlari doktori, professor

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Esamuratov Aybek Ibragimovich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Samandarova Barno Sul-tonovna

Biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Tajiyeva Zebo Baxodirovna

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Nazarova Maloxat Berdiboyevna

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Xudaynazarova Salomat Ruzibaevna

Tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti

ILMIY JURNAL TEXNIK KOTIBI

Sultanov Samandar Maxmud o'g'li

Arxeolog (tadqiqotchi pedagog)

Ma'mun Universiteti NTM

Журнал включен в перечень ВАК национальных научных изданий, рекомендуемых для публикации основных научных результатов диссертаций по медицинским наукам постановлением № 01-08/3068/17 от 27 сентября 2024 г.

Page Maker | Верстка | Саифаловчи: Xurshid Mirzaxmedov

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

FILOLOGIYA

1. Safarova Svetlana Satimovna XIVA XONLIGINING G‘ARBIY SIBIR HUDUDI BILAN MADANIY ALOQALARI TARIXI.....	7
2. Машарипова Садокат Абдуллажоновна ХУДОЖЕСТВЕННЫЙ ОБРАЗ АМИРА ТИМУРА ПО КНИГЕ Т. ВАСИЛЬЧЕНКО “ЭМИР ТИМУР. ИСТОРИЯ, ЛИЧНОСТЬ, ВРЕМЯ”.....	14
3. Raufjon Mahmudov, Sultonova Jayrona O‘ZBEK XALQ ERTAKLARINING LEKSIK QATLAMLARI VA LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI.....	19
4. Шухрат Эркинович Худайбергенов ЯЗЫКОВЫЕ ОСОБЕННОСТИ КЛАССИЧЕСКИХ КИНОКОМЕДИЙ В ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКОМ РАКУРСЕ.....	26
5. Bobir Maxammadov MIKROSOFT WINDOWS OPERATSION TIZIMI TERMINLARINING MAXSUS LUG‘ATLARDA BERILISHI.....	32
6. Raufjon Mahmudov, R.Allaberganova O‘ZBEK TILIDAGI TARIXIY ANTROPONIMLAR.....	37
7. Abdullayeva Shaxnoza TERMINOLOGIYA VA ONTOLOGIYA MUNOSABATLARI.....	43
8. Raufjon Mahmudov, Nilufar Zaripova ABU RAYHON BERUNIYNING “OSOR UL-BOQIYA” ASARI VA TILSHUNOSLIK AN‘ANALARI.....	54
9. Rasulqulova Sitara Shodmonjonovna O‘G‘UZ LAHJASINING HUDUDIY XUSUSIYATLARI VA BILINGVIZM JARAYONLARI..	59
10. Raufjon Mahmudov, Dilfuza Ruzmatova JADIDCHILIK HARAKATI VA UNING XORAZM MADANIY HAYOTIDAGI O‘RNI.....	64
11. Sherzod Atajanov UMUMERONIY TILLAR BILAN BOG‘LIQ ANTROPONIMIK TIZIM.....	72
12. Safarova Svetlana Satimovna XV – XVI ASRLARDA XORAZM VOHASINING QUYI VOLGABO‘YI HUDUDLARI BILAN ALOQALARI.....	77
13. Вазира Муродова “ОИЛА” КОНЦЕПТИНИНГ КОГНИТИВ ХУСУСИЯТЛАРИ.....	83
14. Вазира Муродова “ОИЛА” КОНЦЕПТИНИНГ ЭТИМОЛОГИК – СЕМАНТИК ТАМОЙИЛЛАРИ.....	89


TARIX

- 15. Matqurbonov Omonbek Odilbekovich, Jumanazarova Sadoqat Zafarbek qizi**
KARVON YO'LI BO'YLAB HARAKAT QILGAN XORAZM SAVDOGARLARINING
SHARQIY YEVROPA VA KAVKAZDAGI FAOLIYATI.....99
- 16. Ismailov Bobur Baxramovich**
XIVA XONLIGIDA SO'NGGI O'RTA ASRLARDA METALSOZLIK XOM-ASHYO
MANBALARI VA TASHQI SAVDO ALOQALARI TARIXI.....103
- 17. Palvanova Tuxtajon Palvanovna**
XORAZMDA TEATR SAN'TINING TASHKIL TOPISHI VA RIVOJLANISHI.....108

FILOLOGIYA

Safarova Svetlana Satimovna –
Ma'mun universiteti Filologiya kafedrasi o'qituvchisi

XIVA XONLIGINING G'ARBIY SIBIR HUDUDI BILAN
MADANIY ALOQALARI TARIXI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.17154543>

ANNOTATSIYA

XVI asrdan boshlab Rossiya davlatining G'arbiy Sibir hududlarini zabt etib boshlashi Xorazm vohasining bu hududlar bilan aloqalari endilikda ilgariidek (VIII – XIV asrlar davomida) juda yaxshi bo'lmasada, bu holat Xorazmning G'arbiy Sibir hududlari bilan qadimdan rivojlangan tarixiy aloqalariga putur yetkazgan albatta. Ammo, yozma manbalar ma'lumotlari hamda arxeologik va numizmatik manbalarning tahlili shuni ko'rsatadiki, XVI – XIX asrlar boshlarigacha ham Xorazm vohasining G'arbiy Sibir hududlari bilan aloqalari to'xtab qolmagan. SHu jihatdan olganda, ushbu maqolada, bu mavzu bo'yicha haligacha mavjud muammoli vaziyatlar, bahsli masalalar va qarashlar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Xorazm, Xiva xonligi, G'arbiy Sibir, Rossiya imperiyasi, Sibir xonligi, Kuchum, Muhammad Sharif Bulg'oriy, Niyozquli Turkmaniy, tatarlar, boshqirdlar.

Сафарова Светлана Сатимовна –

Преподаватель кафедры филологии, Университет имени Мамуна

ИСТОРИЯ КУЛЬТУРНЫХ СВЯЗЕЙ ХИВИНСКОГО ХАНСТВА С
ЗАПАДНОСИБИРСКИМ РЕГИОНОМ

АННОТАЦИЯ

Хотя завоевание Западной Сибири Российским государством в XVI веке привело к ухудшению отношений Хорезмского оазиса с этими регионами (VIII–XIV вв.), это, безусловно, подорвало давние исторические связи Хорезма с западносибирскими регионами. Однако анализ письменных, а также археологических и нумизматических источников показывает, что связи Хорезмского оазиса с западносибирскими регионами продолжались вплоть до XVI–XIX вв. В связи с этим в статье анализируются проблемные ситуации, спорные вопросы и существующие по этому вопросу взгляды.

Ключевые слова: Хорезм, Хивинское ханство, Западная Сибирь, Российская империя, Сибирское ханство, Кучум, Мухаммад Шариф Булгари, Ниязкули Туркмени, татары, башкиры.

Safarova Svetlana Satimovna –

Lecturer, Department of Philology, Ma'mun University

THE HISTORY OF CULTURAL RELATIONS BETWEEN THE KHIVA KHANATE AND THE WESTERN SIBERIAN REGION**ABSTRACT**

Although the Russian state's conquest of Western Siberia in the 16th century meant that the Khorezm oasis' relations with these regions were no longer as good as they had been (during the 8th-14th centuries), this situation certainly undermined the long-standing historical ties between Khorezm and the Western Siberian regions. However, the analysis of written sources, as well as archaeological and numismatic sources, shows that the Khorezm oasis' relations with the Western Siberian regions did not cease until the 16th-19th centuries. In this regard, this article analyzes the problematic situations, controversial issues, and views that still exist on this topic.

Key words: Khorezm, Khiva Khanate, Western Siberia, Russian Empire, Siberian Khanate, Kuchum, Muhammad Sharif Bulgari, Niyazkuli Turkmen, Tatars, Bashkirs.

KIRISH

Rossiya – Xiva munosabatlari XVI – XVII asrlar davomida endi rivojlanayotgan va qandaydir o'zaro tushunmovchilik holatlari ustunlik qilgan davr bo'lib, bu munosabatlar jarayonida tatar-boshqird va Xorazm vohasi aloqalari ham ilgarigidek (VIII – XIV asrlar davomida) juda ham yaqin bo'lmasada, bu madaniy aloqalar jarayonidagi bir-biriga o'zaro ta'siri yetarli darajada edi.

Faqat XVIII asr boshidan boshlab Rossiya – Xiva xonligi munosabatlari alohida bosqichga chiqib, bu borada Rossiya imperiyasi tobora faol tajovuzkor siyosat yurita boshladi. Ayni shu davrda rus hukumati Janubiy Sibir va Uzoq Sharq hududlarini egallay borib, bu yerda mahalliy aholini tobora ruslashtirish siyosatini ham kuchaytirib yuborgan edi. Ana shunday holatda tatar-boshqird va Sibirning boshqa xalqlari ham bu ruslashtirish siyosatiga qarshi chiqqanlar albatta. Ikkinchi tarafdin, bu davrda yanada kuchayib ketgan krepostnoylik – qullik tizimi rus dehqonlari bilan birga tatar-boshqird dehqonlarini ham tobora o'z domiga tortib, yildan – yilga ularning iqtisodiy ahvoli g'oyatda og'irlashib bordi. Natijada, tatar va boshqird dehqonlarining ba'zilar bu ahvoldan qutulishning yagona chorasi sifatida Xiva va Buxoro xonliklari hududlariga qochib keta boshladilar.

METODLAR VA O'RGANILISH DARAJASI

Ilmiy adabiyotlarda bu mavzu yetarlicha o'rganilmagan bo'lsada, Xiva xonligida bitilgan bitiklar va Rossiyalik tadqiqotchilar asarlari hamda Sibir hududi mashhur ulamolarining shajaraviy va tarjimai holga oid boy manbalar mavjud bo'lib, ular o'zaro aloqalarning mavjudligini va xususiyatlarini ko'rsatuvchi eng so'nggi ma'lumotlar mavjud. Xorazm vohasining Quyi Volga va Janubiy Sibir hududlari bilan madaniy aloqalari mavzusiga oid yana bir guruh tadqiqotlar asosan sovet davri va postsovet davri Rossiyalik yoki SSSR tarkibiga kirgan, hozirda mustaqil davlatlar (O'zbekistondan tashqari va asosan Rossiya, Qozog'iston, Turkmaniston olimlari) tarixchilari tadqiqotlari tashkil qiladi. Jumladan, Bigojin Ulan, E.M. Gibadullina, A.Kyugelgen, I. A. Pankov, G.M.Raldigina, Dj.Frank Allen, Z.M. SHadimetova, D.A. Mustafina, M.S. Gatin, A.A. Gatin, R.R. Faxrutdinov, V.N.SHkunov, A.Bustanov, I.Pankov tadqiqotlarida Xorazmning Quyi Volga va Janubiy Sibir hududlari bilan madaniy aloqalari tarixining turli masalalari tahlil qilingan.

Maqolada tizimlashtirish, tarixiy-qiyosiy tahlil, tarixiy ma'lumotlarni umumlashtirish, xolislik tamoyili kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

NATIJAR VA MUHOKAMA

Rossiya imperiyasidagi musulmon tatar va boshqirdlar davlat bilan munosabatlarda turli siyosiy amaliyotlardan foydalanganlar. Ularning bu boradagi munosabatlari doim bir xilda bo'lmagan – to'liq sadoqatdan boshlab, turli ko'rinishdagi qarshiliklargacha bo'lgan yo'llarni o'z ichiga olgan. Natijada, eng avvalo Buxoro, qolaversa Qo'qon va Xiva xonliklariga bir tarafdin qochib kelgan, ikkinchi tarafdin Rossiyaning diniy siyosatidan norozilik sifatida hamda o'z yurtlarini “jaholat diyori” sifatida bilib, Xorazm vohasiga ko'chib kelgan tatar va boshqirdalar

diasporasi shakllangan. Ular Rossiya imperiyasi siyosatidan norozi bo'lsalarda, o'zlarining tarixiy vatani bilan aloqani uzmagani albatta. Natijada bu diaspora Xiva xonligining Quyi Volgabo'yi hamda Janubiy Sibir bilan madaniy aloqalarida juda muhim o'rin tutganlar.

Rossiya imperiyasi chegara hududlarida tatarlar tomonidan qarorgohlar tashkil etilishi XVIII asr oxiri – XX asr boshlariga kelib odatiy amaliyotga aylangan edi. Xuddi shunday qarorgohlar Xiva xonligi bilan chegara dashtlarda yashagan qozoqlar hududlarida tashkil qilingan. Xususan, Qozog'iston dashtlaridagi Semipalatinsk, Petropavlovsk va Pavlodar shaharlarini shunday shaharlar jumlasiga kiritish mumkin [6, 53].

Bu qarorgohlar har tomonlama – ko'chish sabablaridan tortib, yangi jamoalarning mintaqaviy ahamiyatigacha – murakkab tabiatga ega edi. Dastlab ular mintaqalararo savdoning muhim markazlari sifatida vujudga kelgan bo'lsa-da, tez orada kuchli jamoalar, bir nechta masjidlar va shakllangan diniy-ma'rifiy muassasalar bilan diniy markazlarga aylangan. Aksariyat hollarda, bu muhojir jamoalar Rossiyadagi dindoshlar bilan aloqani uzmagani. Bu tatar jamoalariga oid mahalliy manbalar – xususan, shajaralar, tarjimai hol lug'atlari va xotiralar – uzoq masofalarga qaramay, savdo va diniy tarmoqlar orqali aloqalar davom etganini ko'rsatadi [3, 289-290].

1704-1711 yillardagi Boshqird isyoni ilgari va keying yillar isyonlaridan ko'lami jihatidan ajralib turardi. Bu isyon rus hukumatining ayni "ruslashtirish" yoki "xristianlashtirish" siyosatiga qarshi bo'lib, ikkinchi tarafdin soliqlarning 72 turga yetishi dehqonlarning ahvolini yanada yomonlashtirib yuborgan edi. Xullas, shu kabi holatlar tatar va boshqirdlarning O'rta Osiyo xonliklariga, jumladan Xiva xonligiga qochib ketishlariga sabab bo'lgan edi. Manbalarda xonlik hududiga ko'chib kelgan tatar-boshqirdlarning soni haqida aniq ma'lumotlar keltirilmaydi. Ammo, 1810 va 1818 yillarda Xiva va Buxoroga kelgan boshqird poruchigi A. Subxanqulovning ma'lumotiga ko'ra, O'rta Osiyo miqyosida (Xiva xonligini qo'shganda) 5000 dan ortiq tatar va boshqirdlar qochib kelib yashayotgan edilar [8, 65].

1836 yilda Buxoroda bo'lgan rus zobiti I.V.Vitkevich tatar va boshqird qochqinlari asosan Buxoroda bo'lib, Xiva xonligida ular deyarli yo'q deb axborot bergan. Ammo, uning bu axboroti haqiqatga to'g'ri kelmaydi. Chunki, bungacha Xiva xonligida tutqinlikda bo'lib, Rossiyaga qaytgan rus asirlari ma'lumotlariga ko'ra esa, xonlikda juda ko'plagan tatarlar va boshqirdlar bo'lib, ular xonlikda turli kasblar bilan shug'ullanganlar [2, 8-17; 5, 13; 7,34-47; 8, 64-69].

Rossiyaning Orenburg, Astraxan, Ufa, Qozon va Saratov shaharlarida maxsus "buxar yurtichi" – ya'ni Buxoro tovarlari bilan savdo qiluvchilar guruhlarini shakllangan bo'lib, bu o'rinda Rossiyada yashovchi O'rta Osiyolik savdogarlar umumiy "buxorolik"lar deb atalgan guruhlarini tashkil qilganliklarini alohida ta'kidlash lozim. Ammo, bu o'rinda yuqorida ta'kidlanganidek, "buxoroliklar" deb faqat Buxoro shahridan yoki Buxoro xonligidan borgan kishilar tushunilmasdan, buxoroliklar orasida Xiva xonligidan, Qo'qon xonligidan va hatto Kashmir va Afg'onistondan borgan savdogarlar ham tushunilgan. Bundan kelib chiqib xulosa chiqariladigan bo'lsa, Xiva xonligi savdogarlari tatar va boshqirdlar yashaydigan shahar va qishloqlarga borib o'rinishganlari holda tatar va boshqirdlar ham O'rta Osiyo xonliklariga, shu jumladan, Xiva xonligiga ham kelib o'rinishganlar. Ammo, ular endi xivaliklar kabi faqat savdo bilan shug'ullanmasdan, boshqa ishlar bilan ham mashg'ul bo'lganlar.

Ammo, tatar va boshqirdlarning Xorazm vohasi va Quyi Volgabo'yi hamda Janubiy Sibir hududlari va xalqlari bilan faqat iqtisodiy munosabatlarda faol bo'lganliklari bilan cheklanilib qolinmagan albatta. Ular madaniy aloqalarda ham, Xiva xonligida madaniy taraqqiyotda ham muhim o'rin tutganlar.

Tatar va boshqirdlarning Rossiya hududlaridan xonlik hududlariga qochib yoki ko'chib kelishlariga yuqorida ta'kidlanganidek, faqat iqtisodiy sabablar bo'lmagan. Buni Orenburg va Astraxan guberniyalaridagi tatar va boshqird olimlari tadqiqotlarida aniq kuzatish mumkin. Jumladan, bu qochqinlarning aksari qismi, Rossiya imperiyasining mahalliy hududlarda yuritgan diniy siyosatidan norozi bo'lganlari uchun quvg'inga uchraganliklari sababli ham O'rta Osiyo xonliklariga kelib yashashga majbur bo'lganlar.

Garchi XVIII asr oxirlarida Yekaterina II musulmonlarga nisbatan ijobiy siyosat yuritib, ularni imperiya doirasida rasmiy tan olish yo'lida muayyan yutuqlarga erishgan bo'lsa-da,

manbalarda davlatning integratsiya siyosatiga nisbatan jiddiy norozilik ifoda etilgan. Davlat tomonidan homiylik qilingan diniy institutlar “johiliy” deb baholangan, va aynan shu norozilik Volga-Ural musulmonlarining Xorazmga, Najmiddin Kubro siymosi bilan tanilgan muqaddas mintaqaga hijrat qilishlarida namoyon bo‘lgan [1].

Xiva madrasalarida ta‘lim olgan tatar va boshqirdlar haqida ma‘lumotlar bo‘lmasada, Buxoro madrasalarida ularning ta‘lim olganligi haqida ma‘lumotlarning o‘zi yetarliki, albatta Xiva madrasalarida ham tatar va boshqirdlarning ta‘lim olganliklari aniq. Jumladan, Xorazmda Eshon bobo nomi bilan mashhur bo‘lgan tatar ulamosi Muhammad Sharif Bulg‘oriy Buxoro madrasalarida ta‘lim olsada, olgan bilimi yetarli emasligi hamda u o‘z yurti bo‘lmish Sibir hududlarini “jaholat diyori” sifatida bilib, olgan bilimlarning asosiy qismi asli islomiy odat va an‘analarga mos laelmasligini ta‘kidlab, XIX asr boshlarida Xorazmga, aniqrog‘i hozirgi Urganch tumanidagi Chakka qishlog‘iga ko‘chib kelib yashab boshaydi. U bu yerda ham diniy bilimlarini yanada oshirishga harakat qiladi. Natijada mazkur qishloqda butun bir tatar diniy ulamolari sulolasi shakllanadiki, keyinchalik ular nafaqat xonlik davrida balki, hatto SSSR davrida ham O‘zbekiston miqyosida katta nufuzga ega bo‘ladilar [9, 183-204].

Ilmiy adabiyotlarda bu mavzu yetarlicha o‘rganilmagan bo‘lsada, Xiva xonligida bitilgan bitiklar va Rossiyalik tadqiqotchilar asarlari hamda Sibir hududi mashhur ulamolarining shajaraviy va tarjimai holga oid boy manbalar mavjud bo‘lib, ular o‘zaro aloqalarning mavjudligini va xususiyatlarini ko‘rsatuvchi eng so‘nggi ma‘lumotlar mavjud. Mavjud barcha manbalar Muhammad Sharifning Xorazmga hijratini Sibir hududlaridagi “kofirlar” bilan yuzaga kelgan ziddiyat bilan bog‘laydi. Bu holatni yuqorida ta‘kidlangan manbalar asosida aniqlanib, bu o‘rinda Muhammad Sharifning tarjimai holini ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Tatar ulamolarining asosiy tarjimayi hol – shajara asarlarida Muhammad Sharif Bulg‘oriy (vafoti taxminan 1841/1842 yillar) (to‘liq ismi – Muhammad Sharif ibn Ibrohim Bayrakaviy Xorazmiy Chakkaviy; qo‘lyozmada nisbasi Naqshbandiy Mujaddadiy shaklida keltirilgan) alohida bo‘limda tilga olinadi. Rossiya manbalarida Muhammad Sharifning Buxoroda ta‘lim olgani, so‘ngra Samara guberniyasining Bugulma uezdiga qarashli Bayraka qishlog‘iga qaytib kelgani va nihoyat Xorazmga hijrat qilgani haqida qisqacha ma‘lumot berilgan [10, 21].

Markaziy Osiyo manbalari esa ancha batafsil tafsilotlarni keltiradi. Muhammad Sharif haqidagi eng keng va manobiy ma‘lumot “Riyo‘z al-zokirin” (“Zokirlar bog‘i”) asarida jamlangan bo‘lib, bu kitob Xorazmdagi uning shogirdlaridan biri – Domulla Ollohyor Xudoyberdi o‘g‘li Mahzun (1841 – 1895 yildan keyin) tomonidan yozilgan. Ushbu asar juda boy afsonaviy hikoyalardan iborat bo‘lib, Xorazmdagi Naqshbandiya-Mujaddidiya tariqati faoliyatini yoritadi. Asarda aytilishicha, Muhammad Sharif aslida Janubi-g‘arbiy Sibir hududidagi tarixiy Bulg‘or yurtidan bo‘lib, no‘g‘ay tatar millatiga mansub edi. U mashhur sufiylik ustozlardan biri – Niyozquli Turkmaniy (tug‘ilgan yili noma‘lum – vafoti 1821yil) huzurida Buxoroda ta‘lim olgan [9, 190].

Muhammad Sharif Bulg‘oriy kuchli diniy bilimga ega bo‘lib, uning o‘tkir bilimi haqida quyidagi ma‘lumotlar keltirib o‘tilgan: “Bir xorijiy olim kelib, barcha buxorolik olimlarni munozarada yengdi. Shunda amir Shohmurod yig‘ilishda: “Agar xorijdan kelgan bir olim buxoroliklarning hammasini yengib ketsa, bu biz uchun or bo‘ladi. Nahotki Buxoroda bu olim bilan teng bahs qila oladigan odam topilmasa?!” – deb g‘azab bilan so‘radi. Yig‘ilishda ishtirok etayotgan bir mulla: “Yaqindagina tahsilni tugatgan ikki no‘g‘ay-tatari yigitlar bor”, dedi. Amir Shohmurod: “Ularni olib kelinglar. Agar ular bu olimni yenga olsalar – yaxshi, yenga olmasalar – demak, hech kim yenga olmaydi”, deb buyruq berdi. Bu parchada tilga olingan xorijiy olimning shaxsi aniq emas. Biroq ikki tatar yigit, haqiqatdan ham, amir saroyiga olib borilgan va ulardan biri islomiy fanlar bo‘yicha chuqur bilimga ega ekanini isbotlay olgan. Bu odam Muhammad Sharif Bulg‘oriy bo‘lib chiqadi. Amir Shohmurod uni maqtadi va sovg‘alar berdi. Muhammad Sharif esa tezda eslatib o‘tadiki, u bilan birga yana bir no‘g‘ay (tatar) – Abu Nasr ham bo‘lgan, biroq munozarada qatnashmagan. Shunday qilib, Muhammad Sharif Buxoroni islom dini markazi sifatidagi salohiyatini, shon-sharafini himoya qila oldi [6, 53].

Niyozquli Turkmaniyning tasavvufiy irshod diplomini olgach, Muhammad Sharif hozirgi Tataristonning janubi-sharqida joylashgan Bayraka qishlog‘iga qaytadi. U yerda Ishoq ismli

savdogarning qiziga uylanadi va qaynotasiga qarashli madrasada imom va mudarris sifatida faoliyat yuritadi. Xotini vafot etgach, savdogar Ishoq unga boshqa bir qizini bermoqchi bo'ladi, biroq Muhammad Sharif bu taklifni rad etadi va oilasi hamda mulkini tark etishga qaror qiladi. Taxminan 1815-yilda u ikkinchi marta Buxoroga yo'l oladi [9, 191]. Chunki, Muhammad Sharif yurtida (Sibirda) birinchidan ruslarning, ya'ni "kofirlarning" kundalik hayot tarziga va musulmon yurtdoshlarining mazkur kofirlar odat va an'alariga toqat qilganlariga nisbatan unda nafrat mavjudligidan edi [4, 140].

Tadqiqotchi A.Bustanovning mulohazalariga ko'ra, Markaziy Osiyoga ko'chib ketganidan keyin ham Muhammad Sharif tinch qo'yilmaydi. Jumladan, u "Riyo az-zokirin" asari muallifi ma'lumotlariga tayanib, Muhammad Sharif Bulg'oriyni aynan Rossiya imperiyasi ma'murlari Xiva xonligidan Rossiyaga yuborishlarini talab qilganlar degan xulosaga kelgan. Jumladan, tadqiqotchi "Riyo az-zokirin" muallifining Muhammad Sharifning o'g'li va vorisi Muhammad Zokirning quyidagi hikoyasini keltiradi: "Hazrat [Muhammad Sharif] Xorazmga joylashganidan so'ng, Rossiya hukmdori Xorazm hokimidan o'z yurti tark etgan no'g'aylarni qaytarishni so'radi. Barcha no'g'aylar Rossiyaga qaytarilganda, Hazrat ham ular orasida edi. Yo'l davomida Qozog'istonlik Ummat Bi Muhammad Sharifni mehmon qilib, uni imom qilib tayinladi. Oradan biroz vaqt o'tgach, u yana Xorazmga qaytdi" [9, 192].

A.Bustanov Muhammad Sharifning aynan Xorazmga ko'chganining sababi sifatida uning imkoniyati darajasidan kelib chiqqan bo'lsa kerak degan fikrni bildiradi va uning Xorazmga ko'chib kelishi kelgusida Xorazm va Bulg'or mintaqalaridagi diniy hayotga sezilarli ta'sir ko'rsatganini alohida ta'kidlab o'tadi [9, 193].

Chakkadagi bulg'orlar o'z vatanlari bilan to'liq aloqani uzmagani edilar. Jumladan, 1829-yilda haj safariga chiqqan Bulg'orlik Abd ul-Xabir ibn Abd ul-Jalil ismli ziyoratchi bevosita o'zining noma'lum "vatan"iga – Urganchga yo'l oladi – bu yerda u avval Hakim Otaning muqaddas qabrini ziyorat qiladi. So'ngra Xiva shahriga yo'l oladi. Bu davrda Xiva hukmdori Olloqulixon edi, aholisini esa sartlar va turkmanlar tashkil qilardi. Xivada Abd ul-Xabir karomati bilan mashhur bo'lgan Pahlavon Otaning maqbarasini ziyorat qiladi. Xivada ikki oy turgach, u yana Urganchga qaytadi – u yerda Chakkadagi bulg'or – tatar diasporasi yashayotgan qishloqqa boradi. Uning yozishicha bu davrda Chakka qishlog'idagi tatarlar diasporasiga Sibirdagi Bayraka qishlog'ining mashhur savdogari Ishoqning kuyovi – Eshon buva nomi bilan mashhur Muhammad Sharif rahbarlik qilishini aytib o'tadi. U yana Muhammad Sharif qo'l ostida sakkiz oy tarbiya olganini ham yozadi [9, 193].

Makkadan haj safaridan qaytgach, Abd ul-Xabir Chakka qishlog'ida Ne'matulloh Eshon (1772–1844) madrasasida bir oy davomida qoladi. Abd ul-Xabir o'sha vaqtda Ne'matulloh Eshon hali tirikligini ta'kidlab, uning ma'lumotiga ko'ra Boshqirdistondagi Istarlibosh qishlog'idagi Naqshbandiy–Mujaddidiy tariqatining nasabiy silsilasi aynan shu yerda – Ne'matulloh Eshon tomonidan asos solinganligini yozadi. Demak, yana bir bor ta'kidlab o'tish lozimki, XVIII – XIX asrlarda ham tatar-boshqird xalqlari vakillari Xiva xonligi va Sibir hududlari bilan madaniy aloqalarda vositachilik qilib, madaniy aloqalar yuqorida manbalarda ta'kidlanganidek to'xtab qolmagan edi. Ne'matulloh Eshon Niyoz-Quli Turkmaniyning shogirdi bo'lib, Muhammad Sharif bilan yaqin do'st bo'lgan. Muhammad Sharif Xorazmdan yozgan maktublarida uni "sevimli birodarim" deb atagan [9, 194].

Abd ul-Xabir Bulg'oriy yana Chakka qishlog'idagi Muhammad Sharifning o'rinbosari (xalifa) va yaqin do'sti Veldan ismli shaxs haqida ham ma'lumot keltirib o'tadi. Veldan ham bulg'orlik bo'lib, Orenburg gubernatorligidagi Yuqori Menchar qishlog'idan kelgan edi. U Muhammad Sharifdan ruxsat (ijozatnoma) olib, mustaqil shayxga aylangan. Shuningdek, u yuqorida tilga olingan Ne'matulloh Eshonning o'g'li Ahmad Sa'iddan ham ijozat olgan edi [9, 194].

Veldanning o'g'li Abd ur-Rashid ham Rossiya imperiyasidagi, aniqrog'i Sibir hududlaridagi boshqa Naqshbandiy–Mujaddidiy tariqati vakillari tomonidan tan olingan shayxlar qatoridan o'rin olgan bo'lib, Sibir shayxlari shaharasiga ko'ra ehtimol, u ham Xorazmda istiqomat qilgan. Xorazmdagi tatar so'fiylar guruhi aynan shu diniy tarmoqning bir bo'laki sifatida qaralgan,

chunki Muhammad Sharif va uning ma'naviy izdoshlari XX asr boshlariga qadar davom etuvchi silsilanomalarda muntazam qayd etilgan [9, 195].

Bu tarmoq XIX asr oxirlarigacha mavjud bo'lgan. Zero, Ne'matulloh Eshonning nabirasi Habibulloh al-Istarli Muhammad Sharifning o'g'li Muhammad Zokir huzurida ta'lim olgan. Boshqa manbalar ham "Qozon diyori"dan kelgan ko'plab talabalar Muhammad Zokirdan ilm o'rganganliklarini tasdiqlaydi. Shuningdek, tatar olimlari haqidagi barcha tarjimai hollar Xorazmga bo'lgan hijrat haqida ma'lumotlarni Istarliboshdagi so'fiy silsila vakillaridan olganliklarini ko'rsatadi. Demak, Xorazm va Bulg'or Naqshbandiylari o'zaro bog'langan diniy-ta'limiy aloqalarga ega bo'lib, bu aloqalar doimiy ziyoratlar va so'fiylikka kirishish marosimlari orqali mustahkamlangan edi [9, 195].

Yuqoridagi fikr, ya'ni, turli tadqiqotlarda XVII – XIX asrlarda, yoki Xiva xonligining Rossiya tomonidan bosib olinguncha Xiva xonligining Quyi Volgabo'yi hamda Janubi-g'arbiy Sibir hududlari bilan madaniy aloqalar to'xtab qolganligi borasidagi xulosalar tarixiy haqiqatga to'g'ri kelmaydi. Shu bilan birga, bu davrlarda bunday munosabatlarda faqat savdogarlar yoki tilmoch-tarjimonlar emas, balki diniy ulamolar hamda olimi-fuzalolar ham muhim o'rin tutganlar. Chunonchi, bu masalani o'rgangan tadqiqotchi A.Bustanov Xorazmdagi tatar muhojirlar jamoasini amaliy jihatdan o'rganar ekan, quyidagi fikr - mulohazalarni ilgari surgan: "Volga-Ural mintaqasida allaqachon shakllangan imperiyaviy tuzilmalar bilan yuzaga kelgan qarshilik Urganch yaqinida kuchli muhojir jamoasining vujudga kelishiga sabab bo'lgan. Bu jamoa Naqshbandiya-Mujaddidiya tarmoqlaridan vatanga bog'lovchi barqaror ko'prik sifatida foydalanilgan. Olib borilgan tadqiqotlar Urganch yaqinidagi bu tatar muhojirlar guruhi bilan XIX asrda tanilgan Volga-Ural mintaqasi diniy arboblari o'rtasida kuchli aloqaning mavjudligini ko'rsatadi. Bu mintaqalararo aloqa Xorazmning diniy tarixida muhim rol o'ynagan, chunki tatar so'filari Naqshbandiya-Mujaddidiya g'oyalarini turkman qabilalari orasida ham yoyganlar" [9, 199].

Xorazm bilan Volga-Ural mintaqasi o'rtasida madaniy dialog mavjud bo'lganini ko'rsatuvchi bir nechta omillar mavjud. Avvalo, bu aloqalar aniq til asosiga ega bo'lgan – XVIII – XIX asrlar qo'lyozmalarida ishlatilgan xorazmiy adabiy til tatar adabiy tiliga juda yaqin bo'lgan.

Bu jihatni XVIII asr o'rtalarida Qozon vohasiga safar qilgan va mahalliy tatar talabalari orasida katta obro' qozongan xorazmlik din arbobi Eshniyoz ibn Sherniyoz Xorazmiy (tug'ilgan yili noma'lum, vafoti: 1790 yil) shaxsiy misolida ko'rish mumkin. Uning tatar musulmonlari iltimosiga binoan yozilgan "Aqoidi Bulg'oriyya" ("Bulg'or ahli uchun qoidalar") nomli aqidaviy risolasi Volga-Ural mintaqasida ma'lum darajada mashhur bo'lgan. Bu asar Shahobiddin Marjoniy tomonidan tanqid qilingan bo'lsa-da, u diniy an'analarni Bulg'or yurti tomon uzatishda muhim rol o'ynagan [9, 200].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bulg'ordan ko'chib kelgan jamoa o'zini Xorazmdagi mahalliy diniy an'analar bilan Kubroviya tariqatiga qo'shilish orqali uyg'unlashtirdi. Kubroning merosiga bog'liqlik ularning Rossiyadagi "johiliy" islomiy guruhlardan farqliligini ta'kidlovchi yana bir timsolga aylangan. Biroq bu qarama-qarshilik mutlaq emas edi: Muhammad Sharif boshchiligidagi sufiylik jamoasi Janubiy Uraldagi mashhur Mujaddidiya markazi – Istarlibosh qishlog'i bilan juda yaqin aloqalar o'rnatgan edi. Ammo bu aloqalar biryoqlama bo'lgan: Rossiyadan kelgan talabalar va ziyoratchilar Muhammad Sharif va uning avlodlari boshchiligidagi xonaqohda bo'lib turishgan, biroq Xorazm va Janubiy Uraldagi mujaddidiy sufiy tarmog'i orqali Rossiyada mustamlakachilikka qarshi g'oyalar tarqalganiga oid hech qanday dalil yo'q.

Iqtiboslar / References / Сноски

1. Бигожин Улан. Татарские суфии в Центральной Азии: культурный обмен и побег из "земли невежества" в Хорезм // [Elektron manba] <https://www.caa-network.org/archives/8192>.
2. Гибадуллина Э.М. Участие татар в стационарной торговле на северо-западе Казахской степи во второй трети XVIII – первой половине XIX в.// Из истории и культуры народов Среднего Поволжья. 2022. Т.12, №2. С.8–17.

3. Кюгельген А. Расцвет Накшбандийа-Муджаддидийа в Средней Трансоксании с XVIII - до начала XIX вв.: опыт детективного расследования / Суфизм в Центральной Азии (зарубежные исследования) Сборник статей памяти Фритца Майера (1912-1998). – СПб.: Филологический факультет Санкт-Петербургского Государственного Университета, 2001. – С. 288-295.
4. Панков И. А. Эшон-бобо и его потомки: сакральный статус и религиозная роль династии ишанов. Кунсткамера. 2023. 1(19). – С.135–150.
5. Ралдыгина Г.М. Оренбург в восточной политике России в XVIII - XIX вв. // История: далекая и близкая...: материалы межвуз. науч. конф., посвящ. 250-летию г. Оренбурга. Оренбург, 1993. – С.13-25.
6. Франк Аллен Дж. Исламская историография и «булгарская» идентичность татар и башкир в России / Пер. с английского. – Казань: РИУ, 2008 – 253 с.
7. Шадиметова З. М., Мустафина Д. А., Гатин М. С., Гатин А. А., Фахрутдинов Р. Р. Татары-мусульмане Оренбурга в российской торговле со Средней Азией во второй половине XVIII в. // Известия Общества археологии, истории и этнографии при Казанском университете. 2018, 38(3-4). – С.34-47.
8. Шкунов В.Н. Татарские купцы в российско-восточной торговле (вторая половина XVIII – первая половина XIX вв.) // Гасырлар авазы - Эхо веков. Историко-документальный журнал. 1997, №3-4.– С. 64-69.
9. Bustanov A. The Bulghar Region as a “Land of Ignorance”: Anti-Colonial Discourse in Khvarazmian Connectivity // Journal of Persianate Studies. 9(2), 2016. – Pp.183-204.
10. Pankov I., Bustanov A. Transregional history of a muslim family: Oral and written testimonies on the descendants of Muhammad Sharif al-Bulghari // Manuscripta Orientalia. International journal for Oriental Manuscript Research. 2018. Vol. 24, № 1. – Pp.20-25.



ISSN 2181-9696

Doi Journal 10.26739/2181-9696

«MAMUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»
JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000